



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI VA HUQUQNI QO‘LLASH AMALIYOTINING TAHLILI

Boboto‘xtayev Sohijjon Abdusalim o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

Ommaviy huquq fakulteti tyutori

abdusalimovich95@gmail.com

+998977410772

Annotatsiya. Mazkur tezis O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqini buzganlik uchun javobgarlikning huquqiy asoslari va amaliy qo‘llanishini tahlil qiladi. Unda ma‘muriy va jinoiy javobgarlik choralarining samaradorligi, sud-amaliyoti muammolari hamda intellektual mulkni yaxshiroq himoya qilish bo‘yicha takliflar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Intellektual mulk, javobgarlik, huquqiy tartibot, sud-amaliyoti, mualliflik huquqi, himoya mexanizmlari.

Bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, shuningdek tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi shaxsiylashtirish vositalari huquqiy himoyasini ta‘minlash, mazkur vositalardan huquq egalarining rozilgisiz, qonunga xilof ravishda foydalanish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Qolaversa, huquqbuzarlik oqibatida kelib chiqqan yuridik oqibatlarni bartaraf etish, mutlaq huquq egasiga yetkazilgan moddiy va ma‘naviy zararni baholash hamda uni qoplash



bo'yicha amaldagi qonun hujjatlari normalarini xorijiy davlatlarning sohaga oid ilg'or tajribasiga asoslangan holda yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqini buzganlik uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1070 (Mualliflik shartnomasi bo'yicha javobgarlik), 1090 (Patentni buzganlik uchun javobgarlik), 1096 (Oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foydalanganlik uchun javobgarlik), 1107 (Tovar belgisiga bo'lgan huquqni buzganlik uchun javobgarlik), 1111-moddalarida (Tovar chiqarilgan joy nomidan qonunga xilof foydalanganlik uchun javobgarlik) moddalarida, Ma'muriy javobgarlik tog'risidagi kodeks 177 (O'zganing tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish), 177¹ (Mualliflik huquqini va turdosh huquqlarni buzish), 177² (Ixtiroga, foydali modelga va sanoat namunasiga bo'lgan huquqlarni buzish) moddalarida hamda Jinoyat kodeksi 149-moddasida (Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish) belgilab qo'yilgan.

Yuqorida keltirilgan intellektual mulk huquqini buzganlik uchun javobgarlik turlardan, avvalo, fuqarolik javobgarligiga to'xtalsak.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1070-moddasiga ko'ra mualliflik shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni umuman yoki tegishli darajada bajarmagan holatda fuqarolik javobgarlikka asos bo'ladi¹. Shartnomada belgilangan shartlarni bajarmagan taraf yetkazilgan zararining o'rnini, shu jumladan boy berilgan foydani qoplashi shartligi fuqarolik javobgarlik hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi O'RQ-42-son "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 61-moddasi hamda 62 – moddasida nazarda tutilgan asoslar mualliflik huquqini buzilganligini asoslaydi. Shu sababli ham fuqarolik javobgarlik belgilashda shartnoma bo'yicha bajarilmagan shartlar va

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son. <https://lex.uz/docs/-180552>



shartnoma bo'yicha yetqazilgan zararni qoplab berishni nazarda tutilgan. Agarda asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining takrorlanishi yoki tarqatilishi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan holda amalga oshiriladigan nusxalari kontrafakt nusxalari hisoblanadi bu esa nafaqat fuqarolik javobgarlikka, balkim ma'muriy javobgarlikka ham asos bo'lishi mumkin.

Shuningdek, asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish yohud asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining nusxalarida ularning tayyorlovchilari haqida, ularni ishlab chiqarish joylari to'g'risida, mualliflik huquqining va turdosh huquqlarning egalari haqida yolg'on axborotni ko'rsatish, xuddi shuningdek mualliflik huquqini va turdosh huquqlarni boshqacha tarzda buzish ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa jinoiy javobgarlik belgilash lozimligi ilmiy-amaliy asoslantirilgan.

Fuqarolik kodeksining 1090-moddasida patentni buzish patent egasining talabi bilan to'xtatilishi, qoidabuzar esa patent egasiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplashi shart. Patent egasi ko'rilgan zarar o'rniga qoidabuzardan qoidabuzarlik oqibatida olgan daromadlarini undirib olishga haqliligi belgilangan. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari huquq egasining nafaqat ruxsati shuningdek litsenziya shartnomasini ham talab qiladi foydalanishda. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-mayda qabul qilingan "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasiga ko'ra patent egasi bo'lmagan har qanday shaxs patent bilan muhofaza qilingan sanoat mulki obyektidan faqat patent egasining ruxsati bilan litsenziya shartnomasi asosida foydalanishga haqligi² nazarda tutilgan. Patent huquqini buzganlik uchun ma'muriy

² O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-mayda qabul qilingan "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun Toshkent sh., 2002-yil 29-avgust, 397-II-son <https://lex.uz/docs/-76671>



va jinoiy javobgarlikka asos bo'lsa ham fuqarolik javobgarlik qo'llanilishi mumkin. Chunki huquqbuzarga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik qo'llansa-da, Fuqarolik kodeksining 11-moddasi belgilangan himoya usullarni huquq egasi talab qilishi mumkinligi e'tirof etilgan. Fuqarolik javobgarlikning o'ziga xos ko'rinishi desak bo'ldi.

Intellektual mulk huquqini buzganlik uchun fuqarolik javobgarlikning huquqiy asosi bo'lgan Fuqarolik kodeksining 1096-moddasida belgilangan oshkor etilmagan axborotni qonuniy asosi bo'lmay turib olgan yoki tarqatgan yoxud undan foydalanayotgan shaxs bu axborotga qonundan ega bo'lib turgan shaxsga axborotdan noqonuniy foydalanganlik natijasida yetkazilgan zararni to'lashi shart.

Oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foydalanayotgan shaxs bu axborotni uni tarqatishga huquqi bo'lmagan shaxsdan olgan bo'lsa, axborotni qo'lga kirituvchi shaxs bundan bexabar bo'lsa va buni bilmasligi kerak bo'lsa (axborotni insofli egallovchi), oshkor etilmagan axborotning qonuniy egasi axborotni insofli egallovchi axborotdan foydalanayotganligi noqonuniy ekanligini bilib qolganidan so'ng oshkor etilmagan axborotdan foydalanganlik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashni undan talab qilishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy va jinoiy javobgarlik qonunchiligida oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foydalanayotganligi uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilashda asos sifatida qaralmagan. Xorij tajribalaridan foydalangan holda ushbu oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foydalanayotganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanishi maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.

Fuqarolik kodeksiga ko'ra huquq egalari Tovar belgisidan qonunga xilof ravishda foydalanayotgan shaxs qoidabuzarlikni to'xtatishi va tovar belgisining egasiga yetkazilgan zararni talab qilishlari (1017-modda) va tovar chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs, shuningdek iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar bu nomdan qonunga xilof foydalanayotgan



shaxsdan nomdan foydalanishni to'xtatish, tovaridan, uning idishi va o'rovidan, blankalar va boshqa hujjatlardan qonunga xilof foydalanilayotgan nomni yoki nom bilan adashtiradigan tarzda juda o'xshash belgini yo'qotishni, tayyorlab qo'yilgan nom tasvirlarini va nom bilan adashtiradigan tarzda o'xshash belgilarni yo'q qilib tashlashni, basharti buning iloji bo'lmasa tovarni va (yoki) idish va o'rovni olib qo'yish hamda yo'q qilib tashlashni talab qilishga haqlidir.

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining shaxsiylashtirish vositalari o'z mazmuniga ko'ra, fuqarolik-huquqiy munosabatlar obyektlari sirasiga kiradi. Shu bois, mantiqan olib karaganda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11-moddasida nazarda tutilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilishning umumiy usullari xususiy alomatlarni aks ettiruvchi shaxsiylashtirish vositalariga ham bevosita taalluqlidir. Shunday ekan, shaxsiylashtirish vositalarini himoya qilishning fuqarolik-huquqiy usullari ushbu obyekt larga nisbatan huquqlarni tan olish, huquqlarni buzilishidan oldingi holatiga qayta tiklash va ushbu huquqlarni buzadigan yoki buzilish xavfini keltirib chiqaradigan noqonuniy xatti-harakatlar ning oldini olish, shaxsiylashtirish vositalari bo'yicha tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash, zararni qoplash va neustoyka undirish, ma'naviy zararni qoplash, huquqiy munosabatlarni bekor qilish yoki o'zgartirish xamda davlat boshqaruv organining yoki mahalliy davlat hokimiyati organining konunga zid hujjatlarini sud tomonidan qo'llanmasligi kabilarni xam qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga asosan, agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zarar va shu bilan bir qatorda noqonuniy xatti-harakatlar natijasida olingan daromaddan kam bo'lmagan miqdorda boy berilgan foydaning to'liq hajmda qoplanib berilishini talab qilishga haqli hisoblanadi. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining shaxsiylashtirish vositalaridan



qonunga xilof ravishda foydalanganligi oqibatida huquq egasiga nafaqat moddiy zarar, balki shu bilan birga, ma'naviy zarar ham yetkaziladi.

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining shaxsiylashtirish vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun belgilangan ma'muriy javobgarlikning asoslari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177-moddasi, 2001 yil 30 avgustdagi «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 26-moddasining uchinchi qismida mustahkamlangan.

Xususan, Qonunning 26-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan normalarga asosan, tovar belgisini yoki shu belgi bilan belgilangan tovarni tovar belgisiga nisbatan mutlaq huquq egasining roziligisiz tayyorlash, qo'llash, O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, erkin muomalaga chiqarish yoki ularni shu maqsadda saqlash yoxud ular bilan adashtirib yuboradigan darajada aynan o'xshash bo'lgan bir xildagi tovarlarni belgilash tovar belgisiga doir mutlaq huquqni buzish sifatida e'tirof etiladi.

Tovar belgisidan qonunga xilof ravishda foydalanayotgan shaxs qoidabuzarlikni to'xtatish bilan birga, tayyorlab qo'yilgan tovar belgisi tasvirlarini (etiketka, yorliq, tamg'a, muhr, reklama prospektlari, shu kabilar) yo'q qilib tashlashi shart; qonunga xilof ravishda foydalanayotgan tovar belgisini yoki chalg'itib yuborish darajasida unga o'xshashi bo'lgan belgini tovardan yoki uning idishi va o'rovidan yo'qotishi (o'chirib tashlash, qirib tashlash, qirqib tashlash, bo'lib tashlash) shart.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177-moddasiga asosan, bir xil tovarni belgilash uchun tovar belgisidan yoki xizmat ko'rsatish belgisidan yoxud unga o'xshash belgidan tovar belgisi egasining roziligisiz, uning huquqlarini buzgan holda foydalanish, fuqarolarga nisbatan eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha,



mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi³.

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining shaxsiylashtirish vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun jinoiy javobgarlikning umumiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 149-moddasi, shuningdek, yuqoridagi Qonunning 26-moddasi uchinchi qismida mustahkamlangan.

Biroq Jinoyat kodeksining mazkur moddasida shaxsiylashtirish vositalariga nisbatan huquqlarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik xususida aniq normalar aks ettirilmagan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177-moddasiga o'zganing tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki adashtirib yuborish darajasida ular bilan o'xshash bo'lgan belgilardan shu turdagi tovar (xizmat) larga nisbatan yoxud o'zganing firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish fuqarolarga eng kam ish haqqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilangan. Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, fuqarolarga eng kam ish haqqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.⁴

Ushbu holatda ya'ni huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa huquqbuzarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanishi rivojlangan davlatlarda mavjud. Va u o'z samarasini bermoqda. Milliy qonunchiligimizga ham joriy etsak, intellektual mulk himoyasini mustahkamlagan bolar edi.

³ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi:03/20/613/0362-son, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son <https://lex.uz/ru/docs/-97664>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi:03/20/613/0362-son, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son <https://lex.uz/ru/docs/-97664>



O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 maydagi O‘RQ–534-sonli “O‘zbekiston Respublikasining jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi” qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga 177¹ va 177²-moddalar kiritildi. Unga ko‘ra 177¹ – modda Mualliflik huquqini va turdosh huquqlarni buzish va 177²-modda. Ixtiroga, foydali modelga va sanoat namunasiga bo‘lgan huquqlarni buzish harakat va harakatsizliklar uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi.⁵

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 177¹ – moddasida asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish yoxud asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining nusxalarida ularning tayyorlovchilari haqida, ularni ishlab chiqarish joylari to‘g‘risida, shuningdek mualliflik huquqining va turdosh huquqlarning egalari haqida yolg‘on axborotni ko‘rsatish, asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini, shuningdek ularni takrorlash hamda tarqatish uchun foydalaniladigan materiallar va uskunalarni hamda boshqa huquqbuzarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, jarima solishga sabab bo‘lishi belgilandi.

Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual Mulk Agentligi tomonidan kontrafakt mahsulotlar aylanmasi yuzasidan monitoring olib borilganda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 177-moddasida belgilangan javobgarlika asos bo‘lgan harakatlar aniqlandi. Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual Mulk Agentligi tomonidan kontrafakt mahsulotlar aylanmasi yuzasidan monitoring olib borilganda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 177-moddasida belgilangan javobgarlika asos bo‘lgan kantrafakt mahsulotlari aniqlandi. O‘rganish davomida

⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 maydagi O‘RQ–534-sonli “O‘zbekiston Respublikasining jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi” qonun <https://lex.uz/docs/-4320255>



Italiyaning “GIANNI VERSACE S.R.L” kompaniyasiga tegishli bo‘lgan tovar belgisiga adashtirib yuborish darajasida o‘xshash bo‘lgan “VERSACE” nomi ostida parfyumeriya mahsuloti sotilayotganligi aniqlandi va tegishli tartibda ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirildi.

Aslida huquqbuzar tomonidan ruxsatsiz foydalanilayotgan “VERSACE” so‘zi “GIANNI VERSACE S.R.L” (Italiya) tomonidan xalqaro Madrid tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi hududida muhofaza qilinib kelinmoqda.

Demak, asardan muallif ruxsatisiz har qanday foydalanish qonun bilan ta’qiqlangan. Qonunlarga va muallif huquqiga rioya qilmagan shaxslarga esa ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 177²-moddasida Ixtiroga, foydali modelga va sanoat namunasiga bo‘lgan huquqlarni buzish nazarda tutilgan.

Tegishli patentlangan ixtironi, foydali modelni, sanoat namunasini o‘z ichiga olgan mahsulot yoki buyumni ruxsatsiz tayyorlash, qo‘llash, import qilish, sotishga taklif etish, sotish, fuqarolik muomalasiga boshqa yo‘sinda kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish, shuningdek ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulni qo‘llash yoxud bevosita ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usul bilan tayyorlangan mahsulotni fuqarolik muomalasiga kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish ma’muriy javobgarlikka asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 149-moddasi Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish, ya’ni tafakkur mulki obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o‘zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulk obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ular rasman ro‘yxatdan o‘tkazilgunga yoki e’lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilish jinoiy javobgarlikka hususiy asos bo‘lishi nazarda tutilgan.⁶

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03/21/675/0126-son; 30.03.2021-y., 03/21/679/0256-son <https://lex.uz/docs/-111453>



Intellektual mulk huquqini buzganlik uchun javobgarlik turlarini qo‘llashda har uchalla javobgarlikda ya’ni fuqarolik, ma’muriy va jinoiy javobgarliklarda yuridik shaxsning javobgarligi keltirilgan. Fuqaro va mansabdor shaxs javobgarliklari keltirilgan. Xorij tajribalarini o‘rganib ularni amaliyotdagi ijobiy xususiyatlarni o‘rgangan xolda yuridik javobgarlik belgilashga hamda jinoiy javobgarlik asoslarini aniqlashtirish alohida obyektlarga nisbatdan asos belgilash lozim.